

TURKISTONDA OCHLARGA YORDAM KO'RSATISH KOMISSIYASI FAOLIYATI

Shohrubbek Mamadaliev

Namangan davlat universiteti Tarix kafedrası doktoranti
shohrubbekm92@mail.ru

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Turkistonda tashkil etilgan ochlarga yordam (OY) ko'rsatish komissiyasini tashkil etilishi va uning faoliyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, uezd, ochlarga yordam komissiyasi, qishloq va ovullar.

Turkiston MIK 1921 yil 21 iyulidagi qarorida respublika OYo MKning viloyat, uezd-shaxar, qishloq va ovullarda xam tegishli tarzda ochlarga yordam (OY) komissiyalari tuzishga qaror qiladi. Viloyat ochlarga yordam komissiyasiga Turkiston MIK, a'zosi tayinlanib uni safarbar kilinishi kerak bo'lgan. Uezd ochlariga yordam komissiyasi raisini Turkiston OY MK yoki mahalliy kengash tavsiyasiga binoan tayinlash mumkin bo'lgan. Turkiston OY MK ayni paytda Sirdaryo viloyatidagi ochlarga yordam komissiyasiga xam rahbarlik qilishi mumkin bo'lgan[1]. Shuningdek, ushbu qarorda OY komissiyalariga oziq-ovqat tayyorlash yo'llarini o'rganish, bu borada Turkiston matlubot jamiyatlari ittifoqi (Turksoyuz), Turkiston oziq-ovqat xalq komissarligi bilan xamkorlikda faoliyat yuritish, xayriyalar, ish xaqidan tushumlar uyushtirish, oshxona, vrach ovqatlantirish punktlari ochish vazifalari xam yuklatilgan edi[2]. Turkiston MIK qoshidagi OY MK tarkibi o'zgarib turgan. Bunga sabablardan biri Rossiyadan ochlar oqimining kelishi borgan sari ko'payib borayotganligi hamda yordam qamrovi va uning yo'nalishlari ko'payib ketganligi edi. 1921 yil 13 noyabridan Turkiston MIK qoshidagi OY MKga rais etib M.Brett, unga o'rinbosar etib Volkov, mas'ul kotiblikka esa Mal'yshev tayinlangan[3].

Turkiston MIQ qoshidagi OY MK raisini Turkiston MIQ tomonidan tasdiqlangan. Ushbu komissiya o'z tarkibiga umumiy tezkor moliya va ta'minot bo'limlarini olgan. Zarur hollarda komissiya texnika vositalari, shaxsiy tarkib va respublikaning markaziy hamda mahalliy tashkilotlariga qarashli transport vositalaridan foydalanish huquqiga ega edi. OY MK tomonidan viloyat, uezd,



volostlarda tashkil qilingan OY komissiyalari nafaqat o'z ijroiya qo'mitalariga, balki Markaziy komissiyaga ham to'la to'kis bo'ysungan.

Markaziy va mahalliy OY komissiyalari ko'rsatmasi Turkistondagi hamma sovet tashkilotlari, fuqarolari tomonidan navbatsiz bajarilishi kerak bo'lgan. Ochlarga yordam ko'rsatish komissiyalarining oldida juda murakkab vazifalar borligidan kelib chiqib, uning tarkibida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha komissiyalar tashkil etilgan:

- och bolalarga yordam;
- ochlarni qabul qilish va ro'yxatga olish;
- ochlarni joylashtirish va ularning mehnatidan foydalanish;
- ochlarni ta'minlash;

Shuni ta'kidlash lozimki, joylardagi OY komissiyalari o'z amaliy faoliyatini OY komissiyasi, xalq komissarligi va ijroiya qo'mitalar faoliyati bilan uzviy bog'langan holda olib borishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, joylarda tashkil qilinadigan OY komissiyasi, mavjud shart-sharoitdan kelib chiqib, qabul qilish, ovqatlanish, saralash punktlarini joriy etish, ochlarni sanitar holatlari xamda oziq-ovqat, kiyim-kechaklar bilan ta'minlash jarayonlarini o'rganib borish topshirig'ini ham olgan edi. Ayni paytda keltirilgan ochlarni joylashtirish va ular o'rtasida madaniy-ma'rifiy tarbiyaishlarini olib borish hamda bu vazifalarni bajarishda OY komissiyasi va ijroiya qo'mitalar bilan birgalikda faoliyat olib borish kerak bo'lgan. Kelayotgan ochlar joylarda aniq ro'yxatga olinishi, xususan ularni mehnatga yaroqli yoki yaroqli emasligi, ishga yaroqlilarning malakasi alohida qayd etilishi kerak edi. Shuningdek, joylardagi OY komissiyasi o'zi xtiyoridagi mablag'ni faqat ochlarni boqishga sarflashi mumkin edi. OY komissiyasi tomonidan beriladigan yordamni yakka tartibda, faqat istisno tariqasidagina, amalga oshirishga ruxsat berilgan. Bundan tashqari, agar u yoki butashkilot ochlarga yordam uchun spektakl, lotoreya uyushtirsa, tushgan mablag' to'la-to'kis ochlar hisobiga o'tishi kerak deb qayd etilgan. Lotoreya uchun u yoki bu buyumlarni faqat to'la ishonchli shaxslargagina ajratish zarur deb belgilangan[4].

Rossiya hududlaridan evakuatsiya qilinayotgan ochlarni Turkistonda qabul qilish tartibi ham ma'lum bir ahamiyatga molik bo'lgan. Xususan, Turkistonga keltirilayotgan ochlar avvaldan, ya'ni qaerdan jo'natilayotgan bo'lsa, o'sha yerda



ro'yxatga olinishi kerak bo'lib, bundan maqsad ochlar bilan to'la poezd esholonlarni joylarda to'xtab qolishiga yo'l qo'ymaslik edi. Turkistonga kelgan ochlar OYokomissiyalari tomonidan ro'yxatga olinmagan bo'lsa hamda ularning topshirig'iga bo'ysunmasa, unda ochlarni boshpana, oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlashni amalga oshirish mumkin bo'lmasligi qayd etilgan. Turkiston MIQ qoshidagi OY MK va uning joylardagi OY komissiyalari tomonidan ro'yxatga olinganlar oziq-ovqat, kiyim-kechak bilangina ta'minlanib qolmasdan, tegishli uezd-shahar, qishloq, ovullarda boshpanaga ham ega bo'lishlari qayd etilgan. O'z navbatida ocharchilik guberniyalaridan keltirilayotgan ochlarni joylashtirish jarayoni ma'lum bir tashkiliy ishlarni amalga oshirishni taqazo etgan. Xususan, ochlarni joylashtirish ko'zda tutilgai uezd-shahar, qishloq-ovuldagi joylar, mumkin qadar, avvaldan tekshirilgan bo'lishi, mahalliy aholi va tashkilotlar Rossiyadagi ocharchilik qamrovi natijasida o'lim, kasalliklar avj olgani to'g'risida ma'lum bir tushunchaga ega bo'lishlari kerak edi. Rossiyaning ocharchilik guberniyalaridan keltirilgan har bir ochlar guruhini tegishli OY komissiyasi vaqtincha yashash uchun ajratilgan joyga kuzatib qo'yishi va joylashishi bilan bog'liq tashkiliy masalalar yechimida yordam berishi kerak edi[5].

1921 yil 3 sentabrda Turkistonda ochlarga yordam berish komissiyasi zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

Turkistonga evakuatsiya qilinayotgan ochlarni qabul qilish; Turkiston MIQ qoshidagi OY MK zimmasiga yuklatish; OY komissiyasi faoliyatini operativ-jangovor ahamiyatga molik deb topib, undan chiqadigan har qanda topshiriq-ko'rsatmalarni navbatsiz bajarilishini ta'minlash;

ochlar ahvoli to'g'risida nafaqat hokimiyat organlari, balki aholi o'rtasida ham keng qamrovli, uzluksiz, ommaga tushunarli tarzda targ'ibot ishlarini olib borish;

ocharchilik guberniyalaridan kelayotganlar temir yo'l stansiyasida ro'yxatga olinishi va shuningdek, ro'yxatda millati, jinsi, yoshi, mutaxassisligi hamda ishga yaroqlilik darajasi ko'rsatilishi kerak;

kelayotgan ochlarni joylashtirish millatiga qarab, ya'ni ruslar o'z millatdoshlari zich yoki uyushgan holda yashaydigan posyolkalar va ularning oilalariga, musulmonlar yerli aholi yashaydigan

qishloqlarga hamda ularning xonadonlariga joylashtirish;

mehnatga yaroqsizlarga g'amxo'rlik qilish Turkiston MIQ qoshidagi OY MKga yuklatish; temir yo'l stansiyalari yaqinida aholi punktlari ochlar bilan to'lib



ketganligi sababli, kelayotganlarni birinchi navbatda temir yo‘ldan uzoqroqdagi hududlarga yuborish;

kelayotgan ochlarni joylarga piyoda va imkon darajasida aravalarda olib borish; kelayotgan ochlarni joylarga yetib borguncha va keyin boqish Turkiston MIQ qoshidagi OY MK va respublika oziq-ovqat xalq komissarligi tomonidan ta‘minlansin;

ochlarni joylarda asosan mahalliy aholi xonadonlariga kiritish majburiyati yuklatilsin; mahalliy hokimiyat va tegishli jamoaga kelayotgan ochlarni ish bilan ta‘minlash yuklatilsin;

Ko‘rinib turibdiki, Turkiston MIQ qoshidagi OY MK zimmasida turgan vazifalar keng qamrovli bo‘lib, ularni bajarish uchun viloyatlardagi OY komissiyalari ham tinimsiz ishlashiga to‘g‘ri kelgan. Samarqand, Sirdaryo, Farg‘ona, Turkman viloyatlarida ochlarga yordam masalasi bilan bog‘liqtashkiliy masalalar mumkin qadar uyushqoqlik bilan amalga oshirilgan. Turkiston MIQ va XKKning o‘lka xalqiga

murojaati viloyat va uezdlardagi aholini ham ochlarga yordam masalasida befarq qoldirmadi. Joylarda ochlarga yordam masalasida tushuntirish, targ‘ibot va tashviqot ishlari hamda xayriya yig‘ishlar, yordam haftaliklari boshlanib ketdi.

Evakuatsiya jarayoni hamda Turkistondan Rossiya hududlariga oziq-ovqat mahsulotlarini yordam tariqasida yig‘ish muammolari ushbu komissiyaning faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib bordi. Bu masala yechimida Turkiston MIQ qoshidagi OY MKni ma‘lum miqdorda uzluksiz mablag‘ bilan ta‘minlash kerak edi. Natijada ushbu masala Turkiston XKKning 1921 yil 28 sentabridagi majlisi qun tartibidan joy oldi. Qarorga muvofiq, Turkiston MIQ qoshidagi OY MK tomonidan o‘z xisobiga har bir spektakl, konsert, bog‘ sayri, xursandchilik tomoshalaridan tushadigan mablag‘ning 10 foizini ochlarga yordam solig‘i sifatida maxsus tegishli hisobga o‘tkazish shart deb belgilab qo‘yildi[6].

Turkiston MIQ qoshidagi OY MK o‘z faoliyatida nafaqat kelayotganlarni, balki Rossiyaning ocharchilik guberniyalariga jo‘natiladigan oziq-ovqat mahsulotlari bilan bog‘liq masalalar yechimi bilan ham shug‘ullanardi.

Masalan, 1921 yil 8 oktabrda Boshqirdistondagi och bolalar ahvoli masalasini Turkiston MIQ qoshidagi OY MK ko‘rib chiqib, ularga 10 mln.

rubl va 2 ming pud g'allani ajratish to'g'risida qaror qabul qilgan. Shuningdek, yana 1000 pud g'allani Kattaqo'rg'on aholisidan xayriya sifatida Ufa guberniyasi aholisiga jo'natishga ham qaror qilingan[7].

Demak, bundan, ko'rinib turibdiki, Turkiston MIQ qoshidagi OY MK o'z faoliyati bilan bog'liq vazifalarni nafaqat o'lkaga keltirilayotganlariga, balki Rossiyadagi ochlar mushkulini yengillatishga ham qaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Rasulov A.N. Turkiston Xalqi bag'rikengligi. Toshkent yangi nashr. 2011; O'zR MA, R-17 fond, 1-ro'yxat, 1100-ish, 160-varaq.
2. O'zR MA, R-17 fond, 1-ro'yxat. 1437-ish, 29-varaq.
3. O'zR MA, R-39 fond, 2-ro'yxat, 58-ish, 21- varaq
4. O'zR MA, R-17 fond, 1-ro'yxat, 927-ish, 36- varaq.
5. Mamadaliyev X. I. Farg'ona vodiysi shaharlari tarixi(XIX – XX asr boshlari) / monografiya – Toshkent.: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2022; Namangan viloyati davlat arxivi F-13, 1-ro'yxat, 7-ish, 47-varaq;
6. Namangan viloyati davlat arxivi F-13, 1-ro'yxat, 12-ish, 26-varaq
7. O'zR MA, R-17 fond, 1-ro'yxat, 725-ish, 29-varaq;